

ZAMONAVIY JANGLARDAGI JANGOVAR HARAkatLARNI TASHKILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY QUROLLARNING O'RNI VA ROLI

Mamatov Zafar Jaxongirovich

*O'R HX va MU serjantlar tayyorlash oliy maktabining moddiy-texnik
ta'minot kafedrasi texnik tayyorgarlik sikli o'qituvchisi, O'R QK xizmatchisi,
Samarqand shahri*

Annotasiya: Zamonaviy janglar shuni ko'rsatmoqdaki xar jang turi bo'yicha jangovar xarakatlarning yangicha turlari shiddat bilan o'zgarib bormoqda. Birgina Rossiya va Ukrainada bo'layotgan maxsus operatsiyada keng qo'llanib kelinayotgan zamonaviy qurollarning o'rni juda katta va o'z mo'ljallanishi bo'yicha ishlatilib kelinmoqda. Buni biz qisman kuzatmoqdamiz. Butun olam hamjamiyati tarmoqlaridan NATO tomonidan olib kelingan qurol-aslahalar bo'yicha katta ma'lumot kirib kelmoqda.

Kalit so'zlar: qurollar, dronlar, tahdid, artilleriya vositalari, zirhli nimchalar.

Zamonaviy qurollarning namunalari va modifikatsiyalari yangi o'q otar qurollari, aviatsiya, artilleriya, lazerli qurol-aslahalar juda tez suratlarda takomillashtirilib borilmoqda. Zamonaviy jangovar texnikalarning tezkor yangilanishi va modernizatsiya qilish avjga olinishi jang va jagovar to'qnashuvlarda shaxsiy tarkib minimum darajada qatnashishiga olib kelmoqda va uni "kontaktsiz urush" deb nomlashmoqda. E'tiborizga ba'zi bir davlatlarning zamonaviy armiyalaridagi yangi va modernizatsiya qilingan jangovar texnikalarining namunalari bilan qisqacha tanishtirmoqchiman. Asosiy jangovar mashina, bu tanklar, BMP, artilleriya, muxandis qo'shinlari, havo xujumidan mudofaa qo'shinlari, vertalyotlar va boshqa aviatsiya vositalari ko'magi ostida keng ko'lamli harbiy operatsiyalarni olib borish uchun ishlab chiqarilayotganligi hammamizga juda yaxshi ayon. Ikkinchi jahon urushi tugagach ko'pchilik tahmin qilgan edi, tanklar o'z mohiyatini ishlab bo'ldi va ularni ahamiyati shu darajada tushib ketdiki ularga QK tizimida joy yo'qligi sezilarli darajada ravon bo'lib qoldi.

Ko'plab yevropa davlatlarida tank parklar shiddat bilan qisqartirilib borildi va ularning o'rinlarini o'ta yengil zirxlangan tezkor jangovar yoyilish zirxli mashinalar egallay boshladi.

1. Hozirgi kunga kelib juda tez suratlarda o'zgarib va rivojlanib borayotgan dunyoda, davlat mustaqilligini va mudofaa salohiyatini saqlab turish eng dolzarb masala bo'lib turibdi. Ushbu masalani yechish uchun biz yangi ishlab chiqilinayotgan qurol-aslahalarni va jangovar texnikalarni va modernizatsiya qilinayotganlarini doimiy ravishda o'rganib borishimiz lozim.



2. Barcha rivojlangan davlatlar QKning tarkibiga kirib kelayotgan yangi va modernizatsiya qilingan qurol-aslaha va jangovar texnikalarning barcha turlarini jangovar imkoniyatlari bilan gazetaxonlarga qisacha ma'lumot berish.

Tog' va qiyin relyefli joylar uchun Janubiy Koreya "Tunder" (Grom) K9 o'ziyurar artilleriya qurilmasi va tank XK-2 "Blesk-panter" (Chernaya pantera) jangovar mashinalarini 2011 yildan Qurolli Kuchlari qabul qildi. K9 Gromning konstruktiv jihatlari bashnya va qobig'i shaxsiy tarkibni o'q otar qurollari, oskolkali mina va snaryadlardan himoya qilish uchun po'lat katana tizimi va tunda ko'rish moslama komplektlari bilan jihozlangan. Ekipaj beshta kishidan iborat bo'lib, bular: komandir, mexanik-haydovchi, yo'naltiruvchi va ikkita o'qlovchilardan iborat. 3600 ga aylanadigan bashnyaga 155 mm li uzunstvolli ejektor qurilma va pushkani og'iz qismidagi tormoz bilan ta'minlangan gaubitsa o'rnatilgan. Stvolda olingan ma'lumotni bortli kompyuterga beruvchi snaryadni boshlang'ich tezligini aniqlovchi datchik joylashtirilgan. Havo va yerdagi nishonlarni yo'q qilish uchun bashnyaga 12.7 mm li pulemyot o'rnatilgan. Tank qurilishida yuzaga kelgan mo'jiza bu-kosmik kemalaridagi kompyuterlashtirilgan moslamalar hozirgi kunga kelib tanklarga joylashtirildi. U katta ahamiyatga ega va jangovar texnika qurollarini boshqarishda samarali qo'llanilmoqda. Zirxli listi payvandlangan. An'anaviy ravishda ushbu jangovar texnikada ham ommaviy qirg'in qurollaridan himoya tizimi, isitgich, aloqa vositasi, o't o'chirish "Tunder" (Grom) K9 o'ziyurar artilleriya qurilmasi. Tog' va hiyin relyefli joylar uchun Janubiy Koreya "Tunder" (Grom) K9 o'ziyurar artilleriya qurilmasi va tank XK-2 "Blesk-panter" (Chernaya pantera) jangovar mashinalari bilan 2011 yildan Qurolli Kuchlari qabul qildi. K9 Gromning konstruktiv jihatlari bashnya va qobig'i shaxsiy tarkibni o'q otar qurollari, oskolkali mina va snaryadlardan himoya qilish uchun po'lat katana zirxli listi payvandlangan. An'anaviy ravishda ushbu jangovar texnikada ham ommaviy qirg'in qurollaridan himoya tizimi, isitgich, aloqa vositasi, qt qchirish tizimi va tunda ko'rish moslama komplektlari bilan jihozlangan. Ekipaj beshta odam: komandir, mexanik-haydovchi, yo'naltiruvchi va ikkita o'qlovchilardan iborat. O'q dori komplektiga yana amerkaliklarni XM943 STAFF vistreliga o'xshash KSTM-120 markali o'zi yo'naltiruvchi, dushman tanklarini yuqorisidan, havoda osilib tushish trayektoriyali vistrellar kiradi.

Snaryadning xarakatlanish uzoqligi 2 km dan – 8 km gacha. Undan tashqari 7.62 mm li to'pga qo'sh pulemyot (12 000 ta patron) va 12.7 mm zenit pulemyotlari (3 200 ta patron) bilan jihozlangan. O't ochish boshqarish tizimi 120 mm li to'pdan past uchar vertolyot va samolyotlarni zabt etishga ham qodir.

Tanklar bevosita piyodalarga ko'rsatilayotgan katta xavfiga qarshi o't ochish madati bo'lib xizmat qildi. Bunda tanklarning zirxli himoyalari dushman tomonidan qo'llanilayotgan qurollardan ekipaj a'zolari talofat ko'rishidan va tanrklarni jangovar holatini saqlab qoladi. Ko'pchilar



davlatlarda bo'lib o'tgan urush, harbiy to'qnashuvlar va voqealar yana bir marotaba shuni ko'rsatmoqdaki, tanklar shahar sharoitida yuqori zirxli talab darajasidaligi, manyovchanligi va o't ochish quvvati kuchliligi, jangda hal qiluvchi asosiy rolni bajaruvchanligini isbotlab berdi. Tanklar bevosita piyodalarga keng spektr xavfiga qarshi o't ochish madati bo'lib xizmat qildi. Bunda tanklarning zirxli himoyalari dushman tomonidan qo'llanilayotgan qurollardan ekipaj a'zolari yuqori ehtimoliy yashovchanligini ta'minlab berdi. Biroq tanklarni shahar sharoitlarida muvofaqiyatli qo'llashga imkon tug'diradigan yo'nalishlarda bir qancha zamoniviylashtirish talab qilindi. An'ana bo'yicha tanklar oldinga xarakatda maksimal himoyalanish darajasi aylana yoyi bo'ylab 600 bo'lib, ushbu ko'rsatgich an'anviy tank jangida hujum uchun eng qulay hisoblangan. Yuqorida aytganimizdek ko'pchilar davlatlarda bo'lib o'tgan urushlarda, aynan shahar sharoitlarida tanklarga hujum hamma tomonidan bo'lishi mumkinligi ko'pchilikni o'ylantirib qo'ydi. Buni oldini olish uchun aylana yoyi bo'ylab 3600 lik himoyalanishni talab qildi. Hujum qilishga manbasi bo'lib mina va yuqori qavatlarida joylashgan qurollar, tankni nozik joylariga otish uchun xizmat qildi.

Tanklarni quyruq qismini samarali himoyalash uchun eng qulay texnik qaror bu panjarali qurilma yoki plastinkali zirx hisoblandi. Bunaqa zirhli mashina bilan to'qnashmagunga qadar odatda RPG-7 turidagi reaktiv granatomyotlarda qo'llaniladigan tankka qarshi kumulyativ snaryad jangovar kallak xarakatini betaraf qiladi. Bunaqa turdagi zirhlar g'ildirakli va janjirli mashinalarda keng qo'llaniladi. Hozirgi vaqtda urush bo'layotgan davlatlarda boshqa o'q dorilarga nisbatan yadroli zarbor snaryadlari qo'llanilmoqda. Bunaqa turdagi snaryadlar hamma mashinani bort yoki quyruq qismini teshib o'tishi mumkin. Ushbu havfga qarama-qarshi, zirxnii himoyasiga tegishli bo'lgan muammoni bartaraf qilish uchun bir qator hal qiluvchi qarorlar qabul qilingan. Urush va harbiy to'qnashuvlarda, aynan shahar sharoitlarida tanklarga hujum hamma tomonidan bo'lishi mumkinligi ko'pchilikni o'ylantirib qo'ydi. Buni oldini olish uchun aylana yoyi bo'ylab

3600 lik himoyalanishni talab qildi. Bulardan biri Germaniyaning Leopard 2A6 yoki Shvedsiyaning Leopard 2A5 (Strv 122M) tanklarini oladigan bo'lsak Krauss-Maffei Wegmann firmasi tomonidan minalarga qarshi kuchaytirilgan komplekt ishlab chiqdi. Ushbu modernizatsiya o'z ichiga tankning ostki qismiga yangi zirx, kuchaytirilgan torsion va ichki qismidan ko'plab takomillashtirishlar amalga oshirilgan. Tanklarni yaqin masofadagi janglarda himoyalanishi uchun tanklarga jangovar boshqarish moduli bilan ta'minlangan. Bu modul o'z ichiga yo'naltiruvchi tomonidan boshqariladigan 7.62 mm yoki 12.7 mm pulemyot va 40 mm avtomatik granatomyotlar, hamda tutun hosil qilish qurilmalari bilan jihozlangan. Ushbu tutun hosil qilish qurilmalarini dushman bilan juda yaqin bo'lgan hollarda oskolkali granatalarni uloqtirish ham ko'ndatilgan.



Tanklar yaqin masofadagi janglarda himoyalanishi uchun jangovar boshqarish moduli bilan ta'minlangan. Bu modul yo'naltiruvchi tomonidan boshqariladigan 7.62 mm yoki 12.7 mm pulemyot va 40 mm avtomatik granatomyotlar, hamda tutun hosil qilish qurilmalari bilan jihozlangan. Ushbu tutun hosil qilish qurilmalarini dushman bilan juda yaqin olib borilgan janglarda oskolkali granatalarni ham qurilmadan uloqtirish ko'zda tutulgan. Ushbu tanklarda ham shahar sharoitlarida jang olib borilish uchun modernizatsiya qilingandan keyin quyidaglar bilan ta'minlangan:

- bashnya va shassi quyruq'iga o'rnatiladigan passiv falshbort panjara plastikali yangi konstruktiv osib qo'yiladigan zirh;

- motor transmitsiya bo'limi qopqog'iga o'rnatilgan zirxli himoya;

- yaqin jangda o'zini himoyalash uchun tashqariga chiqarilagn 12.7 mm li pulemyot jangovar modul;

- komandirga aylanasiga kuzatuvni olib borish uchun ponaramli nishonga olish moslamasi;

- desant bilan bevosita aloqada bo'lish uchun tizim va destant turish uchun shassi quyruq qismida yechiladigan qutilardan iborat.

Xulosa qilib aytish mumkinki

1. Har bir yangi ixtiro qilingan va modernizatsiya qilinayotgan jangovar texnika va qurollar otgan o'qi maksimal darajada nishonni zabt etish ehtimoli borligi, bunda dushman keyingi janga kirish imkoniyatini yo'qqa chiqarish kafolat beradi.

2. Kinetik yoki kumulyativ snaryadlar ta'sirida ekipajni o'limdan himoya qilish kafolatlangan.

3. Qurollarni ishlash kompleksi birdaniga bir qancha kanallar texnik ko'rinishini ta'minlab beradi, shu bilan bimrgalikda teplovizionli va televizionli, hamda optik nishonga olish vetvalari bilan ishlash ta'minlab beradi.

FOYDALANGAN MA'NBALAR

1. Техническая эксплуатация автомобилей. Под редакцией проф. E.S.Kuznetsov M: Transport,1991., стр. 117-121, 132-137.

2. Shumik S.V. Основы технической эксплуатации автомобилей. Минск. BCX 1981., стр.209-212.

